

Oriental Journal of Education



DIDACTIC POTENTIAL OF VIRTUAL REALITY TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF A STRATEGIC SYSTEM FOR ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Maftuna Alimova

Associate Professor

Andijan State Institute of Foreign Languages

Email: Dilbarjonova@gmail.com

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: virtual reality technologies, English language teaching, strategic instructional system, didactic potential, digital pedagogy, communicative competence.

Received: 15.02.26

Accepted: 16.02.26

Published: 17.02.26

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the didactic potential of virtual reality technologies in the process of enhancing the strategic system of English language teaching. The study substantiates the role of VR technologies in creating immersive, reality-based communicative environments, increasing learners' cognitive engagement, and supporting independent and reflective learning processes. Furthermore, the paper examines the pedagogical integration of virtual reality technologies with the core components of a strategic framework for English language instruction.

INGLIZ TILINI O'QITISH STRATEGIK TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL REALLIK TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Maftuna Alimova

Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti

Dilbarjonova@gmail.com

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: virtual reallik texnologiyalari, ingliz tilini o'qitish, strategik ta'lim tizimi, didaktik salohiyat, raqamli pedagogika, kommunikativ kompetensiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishning strategik tizimini takomillashtirish jarayonida virtual reallik texnologiyalaridan foydalanishning didaktik salohiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot davomida virtual reallik asosidagi ta'lim muhitining til o'rganishda sun'iy, ammo realga yaqin kommunikativ vaziyatlarni yaratish, o'quvchilarning bilish faolligini kuchaytirish hamda mustaqil va reflektiv o'rganish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashdagi

imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, virtual reallik texnologiyalarining ingliz tilini o'qitish strategik tizimining asosiy tarkibiy qismlari bilan pedagogik jihatdan integratsiyalashuvi tahlil qilingan.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ТЕХНОЛОГИЙ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Мафтуна Алимова

Доцент

Андижанский государственный институт иностранных языков

Email: Dilbarjonova@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: виртуальная реальность, обучение английскому языку, стратегическая система обучения, дидактический потенциал, цифровая педагогика, коммуникативная компетентность.

Аннотация: В статье с научной точки зрения рассматриваются дидактические возможности технологий виртуальной реальности в процессе модернизации стратегической системы обучения английскому языку. В ходе исследования обоснована роль виртуальной реальности в моделировании приближенной к реальной коммуникативной языковой среды, повышении познавательной активности обучающихся, а также в поддержке самостоятельного и рефлексивного обучения. Кроме того, раскрываются особенности педагогической интеграции VR-технологий с ключевыми компонентами стратегической системы обучения английскому языку.

Kirish. Bugungi kunda globallashtirish jarayonlari va raqamli transformatsiyaning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga, jumladan, chet tillarini o'qitish jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Xususan, ingliz tilini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va professional faoliyatning muhim vositasi bo'lib, uni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, an'anaviy o'qitish usullariga asoslangan ta'lim amaliyoti ko'plab hollarda o'quvchilarda real kommunikativ vaziyatlarni to'liq modellashtirib bera olmasligi, ularning nutqiy faolligi va mustaqil fikrlashini yetarli darajada rivojlantirmasligi bilan tavsiflanadi. Natijada til o'rganish jarayoni ko'proq reproduktiv xarakter kasb etib, o'quvchilarning faol ishtiroki va amaliy nutq tajribasi cheklangan holda qolmoqda. Bu esa ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Mazkur holat ingliz tilini o'qitishning strategik tizimini qayta ko'rib chiqish, uning mazmuni, metodlari va

texnologik ta'minotini zamonaviy pedagogik talablar asosida yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhitlari o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Shu nuqtayi nazardan, virtual reallik texnologiyalari ingliz tilini o'qitish jarayonida innovatsion didaktik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Virtual reallik asosidagi ta'lim muhitlari o'quvchilarni sun'iy, ammo real hayotga maksimal darajada yaqin bo'lgan til muhitiga jalb etish orqali ularning nutqiy faoliyatini faollashtiradi, kognitiv jarayonlarini rivojlantiradi hamda o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli virtual reallik texnologiyalarini ingliz tilini o'qitishning strategik tizimi bilan integratsiyalash masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda ingliz tilini o'qitishning strategik tizimini takomillashtirish masalalarida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ayniqsa virtual reallik texnologiyalarining didaktik salohiyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar virtual ta'lim muhitining til o'rganish jarayoniga ta'siri, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi imkoniyatlari hamda bilish faoliyatini faollashtirishdagi pedagogik ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bermoqda.

Ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilgan J.Hattie o'quvchilarning faol ishtirokiga tayangan, vizual va tajribaga asoslangan o'rganish muhitlari yuqori didaktik samara berishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, o'quvchi ta'lim jarayonida passiv qabul qiluvchi emas, balki faol subyekt sifatida ishtirok etganida bilimlarning puxta va barqaror o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Ushbu yondashuv virtual reallik texnologiyalarining ingliz tilini o'qitish jarayonidagi samaradorligini izohlovchi muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi.

R.Marzano ta'lim jarayonida kognitiv strategiyalarni rivojlantirish va yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. U ta'lim texnologiyalari o'quvchilarda tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va o'zlashtirilgan bilimlarni real sharoitlarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishi zarurligini ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, virtual reallik texnologiyalari ingliz tilini o'rganishda o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasiga muvofiq, o'rganish jarayoni shaxsning kuzatish faoliyati, amaliy tajribasi hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri asosida shakllanadi. Olimning ta'kidlashicha, o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi va faol ishtiroki ta'lim natijalarining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Virtual reallik texnologiyalari orqali yaratilgan xavfsiz va boshqariladigan muhit o'quvchilarga ingliz tilida muloqot qilish tajribasini orttirish imkonini berib, ularning kommunikativ faolligini sezilarli darajada oshiradi.

L.S.Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida o'rganish jarayonida ijtimoiy muhit va muloqot yetakchi omil sifatida qaraladi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi til o'rganish

jarayonida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va hamkorlik asosida rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Virtual reallik texnologiyalari yordamida tashkil etilgan interaktiv va hamkorlikka yo'naltirilgan ta'lim muhiti o'quvchilarning ingliz tilida faol muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning nutqiy rivojlanishini jadallashtiradi.

J.Bruner o'rganishni faol va kashfiyotga asoslangan jarayon sifatida talqin qilib, bilimlar o'quvchi tomonidan mustaqil ravishda shakllantirilishini muhim deb hisoblaydi. Uning spiral ta'lim konsepsiyasiga ko'ra, murakkab til birliklari bosqichma-bosqich, turli kontekstlarda qayta-qayta o'rganish orqali samarali o'zlashtiriladi. Virtual reallik texnologiyalari ingliz tilini turli vaziyat va ssenariylar asosida takroriy o'rganish imkonini yaratib, mazkur konsepsiyaning amaliy tatbiqini ta'minlaydi.

M.Dede immersiv va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalarini tadqiq etar ekan, virtual muhitlar o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasini oshirishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, virtual reallik texnologiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti an'anaviy auditoriya mashg'ulotlariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo'lib, o'quvchilarning ingliz tilini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, virtual reallik texnologiyalari ingliz tilini o'qitishning strategik tizimini rivojlantirishda muhim didaktik resurs sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar virtual ta'lim muhitining kommunikativlik, kognitiv faollik, motivatsiya hamda mustaqil o'rganish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Bu esa virtual reallik texnologiyalarini ingliz tilini o'qitish strategik tizimiga ilmiy asoslangan holda integratsiyalash zarurligini asoslab beradi.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilini o'qitishning strategik tizimi ta'lim jarayonini maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va uzluksiz asosda tashkil etishni nazarda tutuvchi yaxlit pedagogik mexanizm sifatida talqin etiladi. Ushbu tizim ta'lim maqsadlari, mazmuni, o'qitish metodlari, texnologik vositalar hamda kutilayotgan natijalarning o'zaro uyg'unligi va uzviy bog'liqligiga tayanadi. Strategik yondashuv ingliz tilini o'qitishda faqat bilimlarni uzatish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning amaliy nutqiy faoliyatini, ijtimoiy-madaniy moslashuvini va kasbiy kommunikativ tayyorgarligini ta'minlashga qaratiladi. Mazkur tizim kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va faoliyatga asoslangan o'rganish tamoyillari asosida shakllanadi. Bunda o'quvchi ta'lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki bilimlarni mustaqil egallovchi, ularni real vaziyatlarda qo'llay oluvchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Strategik tizim doirasida til kompetensiyalarini, xususan, lingvistik, kommunikativ va sotsiokultural kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetensiyalar o'quvchining ingliz tilidan real hayotiy va professional vaziyatlarda samarali foydalanish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Virtual reallik texnologiyalari kompyuter vositalari yordamida yaratilgan uch o'lchamli, interaktiv va immersiv muhit orqali o'quvchini ta'lim jarayoniga faol jalb etuvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar majmuasidir. Ta'lim jarayonida VR texnologiyalaridan foydalanish ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi bir qator muhim didaktik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Kommunikativ muhitni modellashtirish. Virtual reallik texnologiyalari o'quvchilarga real hayotga maksimal darajada yaqin bo'lgan til muhitida muloqot qilish imkonini yaratadi. Bunday muhitda nutqiy vaziyatlar sun'iy tarzda modellashtirilib, o'quvchilar ingliz tilida erkin muloqot qilish, talaffuz va eshitib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada til o'rganish jarayoni nazariy emas, balki amaliy xarakter kasb etadi.

Kognitiv faollikni oshirish. Virtual muhitda tashkil etilgan interaktiv topshiriqlar o'quvchilarning diqqatini jamlash, tahliliy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilar faol o'rganish jarayoniga jalb etilib, bilimlarni tayyor holda qabul qilmasdan, ularni mustaqil izlanish asosida egallaydi. Bu esa o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mustaqil va reflektiv o'rganishni qo'llab-quvvatlash. Virtual reallik texnologiyalari o'quvchilarga mustaqil mashq qilish, o'z faoliyatini tahlil qilish va natijalarini baholash imkoniyatini yaratadi. Bu jarayonda reflektiv o'rganish mexanizmlari faollashib, o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish va rivojlantirish ko'nikmalari shakllanadi.

O'quv motivatsiyasini kuchaytirish. VR asosidagi ta'lim muhitlari o'quvchilar uchun innovatsion va qiziqarli bo'lib, ularning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyoji va motivatsiyasini oshiradi. Natijada ta'lim jarayonida ishtirok faolligi kuchayib, o'rganishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

Virtual reallik texnologiyalarini strategik tizimga integratsiyalash. Ingliz tilini o'qitishning strategik tizimida virtual reallik texnologiyalarini samarali joriy etish bir qator muhim pedagogik yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, nutqiy vaziyatlarni modellashtirish asosida mashg'ulotlarni tashkil etish o'quvchilarning kommunikativ tajribasini boyitadi. Loyiha va ssenariyli topshiriqlar orqali ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalari rivojlantirilib, ijodiy fikrlash faollashadi. Shuningdek, VR texnologiyalari differensial va individual ta'limni ta'minlash imkonini berib, har bir o'quvchining bilim darajasi va ehtiyojlariga moslashgan ta'lim muhitini yaratadi. Formatif baholash jarayonlarini raqamli muhitda tashkil etish esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini doimiy monitoring qilish imkonini beradi. Mazkur integratsiya ingliz tilini o'qitishda zamonaviy didaktik yondashuvlarni keng joriy etishga xizmat qilib, strategik tizimning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosalar shuni ko'rsatadiki, virtual reallik texnologiyalari ingliz tilini o'qitish strategik tizimini rivojlantirishda yuqori didaktik salohiyatga ega. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning

kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, kognitiv faolligini oshirish hamda mustaqil va reflektiv o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Virtual reallik texnologiyalarini strategik tizim asosida joriy etish ingliz tilini o'qitish jarayonining sifatini oshirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 297–310-b.
- 2.Marzano R. J. Classroom Instruction That Works: Research-Based Strategies for Increasing Student Achievement. – Alexandria: ASCD, 2001. – 85–102-b.
- 3.Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1986. – 117–138-b.
- 4.Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 79–91-b.
- 5.Bruner J. S. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 33–57-b.
- 6.Dede M. Immersive Interfaces for Engagement and Learning. // Science. – 2009. – Vol. 323, No. 5910. – P. 66–69.
- 7.Radiani J., Majchrzak T. A., Fromm J., Wohlgenannt I. A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education: Design elements, lessons learned, and research agenda. // Computers & Education. – 2020. – Vol. 147. – P. 103778.
- 8.Makransky G., Petersen G. B., Immersive virtual reality and learning: A meta-analysis. // Educational Psychology Review. – 2019. – Vol. 31, No. 3. – P. 1–29.